

**Xalilova Mahliyo Axror qizi**

*FarDU talabasi*

**Аннотация**

мақолада Шукур Холмирзаев хикоя ва қиссаларининг ўзига хослиги, аёллар образи, детал, портрет, пейзаж, ўзбек халқига хос бўлган урф-одатлар, қадриятлар, миллийлик кабилар илмий жиҳатдан таҳлил этилган.

**Калит сўзлар**

портрет, образ, пейзаж, детал, миллийлик, халқчиллик

**Аннотация**

В статье проводится научный анализ уникальности рассказов и сказок Шукура Холмирзаева, образа женщины, деталей, портретов, пейзажей, обычаев, ценностей и национализма, характерных для узбекского народа.

**Ключевые слова**

портрет, образ, пейзаж, детали, национализм, популяризация

**Abstract**

This article provides a scientific analysis of the uniqueness of Shukur Kholmiraev's stories and fairy tales, including the image of women, details, portraits, landscapes, customs, values, and nationalism characteristic of the Uzbek people.

**Keywords**

portrait, image, landscape, details, nationalism, popularization

Hikoyalardagi voqealikning bevosita ta'siri ostida shakllanadigan xalqning axloqiy-estetik ideali o'tmish milliy an'analarining davomi bo'lish bilan birga taraqqiyotning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Hayotda endigina o'zini ko'rsatib kelayotgan hodisalarga to'sqinlik qiladigan jihatlarga qarama-qarshiliklar ko'rsatadi. Iqtisodiy va ijtimoiy sifatlarga qarab ular o'rtasidagi kurash ham turlicha bo'ladi. Badiiy asardagi milliy xarakter tarixiy aniq ijtimoiy motivlar bilan sug'orilgan taqdirda umuminsoniy mazmunga, chinakam milliylikka ega bo'ladi. Mana shundan keyingina milliy xarakter yaratishga har bir xalq tilining milliy o'ziga xosligi, stilistik qurilish va obrazlilik yordamga keladi. Badiiy til yordamida

milliy xarakterga xalqning estetik ideali, tarixiy qarashlar jamlanadi. Takrorlanmas milliy ruh singdiriladi.<sup>25</sup>

Hozirgi vaqtda inson xarakterini tabiiy, jonli qilib gavdalantirishga intilish kuchaygani insoniy jozibalardagi muhim estetik prinsipga aylanganidan dalolat beradi.<sup>26</sup>

Shukur Xolmirzayevning “Bulut to’sgan oy” qissasi qahramonlari o’zbek degan ijtimoiy etnik va axloqiy hodisaga favqulodda yangicha munosabat, yondashuv mahsuli. Hikoyadagi ismi fe’liga mos Tavakkal ham qanday odamligini nafaqat qissaxon balki o’zi ham anglay olmaydigan sohibjamol Gulsara ham badiiy asar qahramonlari haqidagi mavjud tasavvurlarni o’zgartirib yuboradi. Ular adabiy qahramonlarni hayoldagi qoliblarga moslashtirishdan voz kechib, tasavvurni adabiy personajlar mohiyatiga muvofiqlashtirish kerakligini taqozo etadi. Shunday qilingandagina tanti, qudratli jismoniy kuchga ega, kirishimli, oriyat uchun o’z hayotini ham pista po’chog’icha ham ko’rmaydigan chapani, ayni vaqtda suyuklisi Gulsara qoshida g’alati darajada ilojisiz Tavakkalni tushunish, uni dovyurakligi qayerda tugab, fojiasi qayerda boshlanishini anglash mumkin bo’ladi.

Gulsara o’zbek adabiyoti uchun tamomila yangilik hisoblanadigan obraz. Unda avomga tushunarsiz, aql bilan izohlash mushkul bo’lgan ziddiyatli pokizalik tuyg’usi va g’urur bor. Zamonning zo’rlari, uzatgan joyga qo’li yetadiganlar oldida Gulsara sha’nini yuksak tutadi, kibrlil, mag’rur ayolga aylanadi, ularning yo’liga yurmaydi. Ayni vaqtda, tirikchilik ko’yida pastkash foxishalardan tanini sotadi. G’oyat sohibjamol, farosatli, talantli, nomusli, ayni vaqtda, benomus bu ayol ruhiyatining haqqoniy tasviri kitobxonni larzaga soladi. Uni befarqlik holatidan chiqarib, munosabat bildirishga majbur etadi. O’quvchi ruhiyatini muvozanatdan chiqarish, uni badiiy tasvirga loqayd qolmaydigan holatga solish har qanday adibning yutug’idir.

Yo’ldan adashgan ayollar haqida ko’p yozilgan. Bu mavzuda ayniqsa, Botish adabiyotida qator barkamol asarlar yaratilgan. Sh. Xolmirzayev qalamiga mansub qissa ana shu xildagi bitiklar orasida yo’qolib ketmaydi. Chunki asar qahramonining g’arbona fikrlash tarzi ham uning tabiatidagi o’zbekka xos sezimlarni kechirishga majbur etadigan pokiza tuyg’ular olami ham jonli tasvirlangan. Gulsara timsoli yozuvchi hayolining mahsuligina emas, o’z taqdiriga, o’ziga xos tiynatga ega real odam maqomida aks ettirilgan. Uning foxishalik qilishga tabiatdagi illatlargini emas, balki millat tarixining muayyan davrdagi ijtimoiy sharoit va yanglish ahloqiy o’rnaklar ham sabab ekanligi qissada mahorat bilan ko’rsatilgan. O’rischa tarbiya ko’rgani bois o’zbekona axloqiy talablarga

<sup>25</sup> Quronov.D Adabiyotshunoslikka kirish. – Andijon: Hayot. 2002.

<sup>26</sup> Bekmurodov. Y. // Qahramon jozibasi O’zbek tili va adabiyoti. 1972-yil. 5-son.

yengilroq qaraydigan, to'kis yashash borasidagi istaklarini jilovlashga urinmaydigan o'zbek qizining ayanchli qismati juda ishonarli va tasirsan tasvirlangan.

Gulsara o'zining kimligini, asl bahosini qilgan gunohlariga yarasha ajr bo'lishi lozimligini biladi. U nomusiga dog' tekkanligi, zarur vaqtda o'zini tiya bilmagani uchun ham halol va mard erkak – Tavakkal bilan taqdirini bog'lashni istamaydi. Uni astoydil suygan va unga intilgan o'zini noloyiq deb hisoblaydi. Yo'ldan adashgan bu ayol fidoyiligi yoki oliyjanoblighi uchun emas, balki ruhiyatining qaybir puchmoqlarida o'zbeklik saqlanib qolgani sababli shunday o'ylaydi. Asli ko'ngli toza bo'lgani holda nopok turmush tarzini kechirishga majbur ayol ruhiyatining fojiali tasviri oquvchiga kuchli ta'sir qiladi. Adib o'bro'zlar ingkishofi anosida tuyg'ular samimiyatini ko'rsatishga alohida e'tabor beradi.

“Xumor” hioyasidagi asosiy personajning nafasini bevosita his qilish, hatt-harakatlarini yaqqol ko'rish, chekinmalarini tuyish mumkin. Hikoya qahramoni – romantic tabiatli, mehnatsevar, hayotdan faqat ezgulik qidiradigan va uni topa biladigan, o'z manfaatini deyarli o'ylamaydigan do'lvor yigit. U o'zining nochordan-nochor turmushida mamnun. Boshqach tuzukroq hayot bo'lishini tasavvur ham qilolmaydi. Yigit yosh boshi bilan tuzalmas kasallikka muhtalo bo'lgan. Rangi sahlki, odam qo'rqquvlik, soch to'kilgan, tish qolmagan, pushti kuyib ketgani bois farzand ham ko'ra olmaydi. Bu sho'r ishlarning ba'riga sabab o'zining taksikomaniyaga yo'liqqani ya'ni paxtaga ishlatiladigan dorilardan zaharlangani va endilikda usiz turolmasligini ham biladi. Putifos hidisiz uning uchun butun olam o'z tarovatini yo'qotadi. U o'zining bu ahvolini ijtimoiy jihatdan asoslaydi ham: “...paxta davlatimizning tirkaklaridan, ustunlaridan! Biz uni yetishtirishimiz kerak ekan, sal ziyon ko'rsak nima qilibdi?”. Hikoya qahramoni – lavozimdor shovvozlar vujudga keltirgan nosog'lom vaziyat qurboni. U “...dori mening tarjima holimga singib ketgan ahir! Tushunyapsizmi? Mening butun quvonchlarim, zavqlarim, hayotimning ma'nosi, Vatan oldidagi burch, ilk muhabbatim ham... o'sha bilan bog'liq. Usiz o'tmish yo'q”, - deb bejiz aytmaydi. Bu – e'tiqod. Alohida bir kishi uchun ham, butun bir millat uchun ham yanglish e'tiqoddan havfliroq narsa yo'q. Bu qahramonda o'zbekning tantiligi, o'zini o'ylamasligi, adog'siz sabr-u toqati namoyon bo'ladi. Hikoyada u orqali xalq timsoli yaratilgan, deyish mumkin.

“Bitiktosh” hikoyasida sofdil, oliyjanob, pokiza e'tiqodga ega shaxsning jamiyatda keng ildiz otgan hissizlik, befarosatlik kabi sifatlar qoshida qanchalik nochor, himoyasiz, o'jiz holhga tushishi mumkinligi tasvirlanadi. Hamisha ham adolatsizlikdan, avvalo, shunday oliyjanob kishilar ko'proq jafo chekadilar. Hissiz,

15-Iyun, 2026-yil

to‘qimtabiat, manfaatparast, ammo o‘ta “hushyor”, o‘ta “faol”, o‘ta “to‘g‘ri” kimsalar tufayli ular jamiyatdan chetlatiladilar, atrofdagilarga begona bo‘lib, madadni ko‘kdan izlashga majbur bo‘ladilar. Ularning ta‘sirchan qalblari manfaatbandalarning tili so‘qir kimsalarning chiroyli shiorlar bilan asoslangan, “yuqoridagi”lar tomonidan quvvatlab turilgan hurujlariga bardosh bera olmaydi. Ammo zada yurak taskin izlaydi. O‘zlari singari bo‘lmaguncha, tik turganini yiqitishga, yiqilganni tepkilashga tayyor “faol”lar birovga taskin berolmaydilar. O‘shandaylar zo‘r kelgan joyda ajoyib odamlar “bitiktosh”dagi singari notavonga aylanaveradilar.

Shukur Xolmirzayev o‘z hikoyalarida personajni g‘oyaning oddiy ifodachisiga aylantirmaydi. Yozuvchi sifatida uni, avvalo, odam, uning turfa tabiati, hissiyotidagi toblanishlar, hatti-harakatlar silsilasi va ularning hayotiy-ruhiy asoslari qiziqtiradi. Insonning daxlsizligi va taqdiri uchun quyunchaklik tuyg‘ulari ishonarli aks etgani tufayli Sh. Xolmirzayevning qator hikoyalaridagi obrazlarni bemalol badiiy tip deb aytish mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov.D Adabiyotshunoslikka kirish. – Andijon: Hayot. 2002.
2. Bekmurodov. Y. // Qahramon jozibasi O‘zbek tili va adabiyoti. 1972-yil. 5-son.
3. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. T. O‘qituvchi. 2003 yil.